

THE THEME OF CHILDHOOD IN ENGLISH AND UZBEKISTAN STORYTELLING
AND ITS ANALYSIS PROCESS IN DISCOURSIIVE SPEECH
INGLIZ VA O'ZBEK HIKOYACHILIGIDA BOLALIK MAVZUSI VA UNING
DISKURSIV NUTQDAGI TAHLIL JARAYONI

Mirzaaxmedov Mirjalol

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek hikoyachiligida bolalik mavzusi va uning diskursiv nutqdagi tahlil jarayoni olib boriladi.*

Kalit so'zlar: *childhood, yosh davri, klyuminatsion, taasurol, kechinma*

Qiyosiy-tipologik tadqiqotlar adabiy tuzilmalarning turli jabhalarini – mavzular, his-tuyg'ular, g'oyalar, kompozitsion qurilishlar, uslublar va hokazolarni qamrab oladi. Tipologik mushtarakliklarning asosiy ko'rinishi tarixiy o'xshashliklar deb atalsa ham, biroq katta zamon va makon bilan ajralgan, ammo hech qanday ijtimoiy va tarixiy sharoitlar bilan tushuntirib bo'lmaydigan va haddan tashqari o'xshashligi bilan bizni lol qoldiradigan ko'plab adabiy hodisalar mavjud.

Mark Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» va «Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari» romanlari hamda G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi genetik yaqinlikka ega bo'lmagan ikki milliy adabiyot vakillari bo'lmish adiblarning asarlaridir.

Amerika yozuvchilaridan Mark Tven asarlaridek o'zbek tiliga ko'p tarjima qilingani yo'q. 1939, 1940, 1948 yillarda “Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, 1947 va 1960 yillarda mazkur asarning davomi “Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari”, 1962 yili “SHahzoda va gado”, 1959 yili “Hikoya va pamfletlar to'plami”, 1963 yili “Ezma Bessi”, hikoyalar to'plami va nihoyat, 1966 yili “Janna D'ark” tarixiy romani o'zbek tiliga tarjima qilindi²⁰.

Biz o'z ishimizda «Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari» romanining Odil Rahimiy, “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” asarining Ilyos Muslim tomonidan o'zbekchaga o'girilgan nashrlardan foydalandik.

Mark Tvenning «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» va «Gekl'berri Finnning boshidan kechirganlari» romanlari hamda G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi turli zamonlarda, turli mamlakatlarda va turli janrlarda yaratilganiga qaramay ularni ko'p jihatlar birlashtirib turadi. Ular mavzu jihatidan ham, syujet – kompozitsion qurilishi jihatidan ham nisbatan yaqin va deyarli o'xshash. Ularda XIX

²⁰ Amerika hikoyalari. – T., 2011. – 256 b. Amerikanskaya literatura i obshchestvenno-politicheskaya bor' 60-e nachalo 70-x godov. - M.: Nauka 1977.

asr ikkinchi yarmi – XX asr boshidagi AQSh va o'zbek bolalarining og'ir qismati haqida hikoya qilinadi.

Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasi hisoblanib, yosh kitobxonlar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kichkintoylar qalbida o'y-fikrlar uyg'otadigan, porloq va ezgulik ishlariga ilhomlantiradigan bo'lishi kerak. Eng muhimi mavzular aniq, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi zarur. Yosh kitobxonni doimo sehrlil-fantastik ertak, sarguzasht hikoya va asarlar qiziqtiradi. Bolalar adabiyoti o'ziga xos xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Zotan, bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Mustaqil mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarini o'zni, ahamiyati katta. Negaki tarjima asarlarini o'qigan har bir yosh kitobxonning dunyo haqidagi fikri, tasavvuri boyib, o'sha xalqlarning yashash sharoitlari, urf-odatlari, orzu-intilishlari bilan tanish bo'ladilar. Adabiy taxallusi Mark Tven bo'lgan Semyuel Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, o'z zamonasi burjua jamiyati illatlarini fosh etgan satirik va realist yozuvchidir. Mark Tven asarlarini o'qigan har bir kitobxonning, millati va tilidan qat'iy nazar bu yozuvchining mahoratiga tan bermay iloji yo'q. Yozuvchi asarlarini O'zbekistonda har bir shoir, yozuvchi hamda tarjimonlar o'zbek tiliga tarjima qilib yurtdoshlarimizni Mark Tven asarlaridan bahramand etishgan²¹. Ushbu yozuvchining noyob asarlaridan bo'lmish "Tom Soyerning boshidan kechirganlari", hamda "Gekl'berri Finning boshidan kechirganlari" sarguzasht asarlari butun dunyo bolalar adabiyotiga hamda hozirgi kun bolalar adabiyotiga ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ushbu sarguzasht asarlaridagi yumorlar har qanday kitobxonni o'ziga rom aylaydi²². Mark Tven bilan bizning yozuvchimiz G'afur G'ulom, garchi turli vaqtda hamda turli joyda yashashgan bo'lsa ham, ularning asarlaridagi ba'zi tafsilotlar o'rtasida badiiy mushtaraklik borligini quyida keltirilgan misolda ko'rishimiz mumkin:

“And here was Auntie pegging away at the questions, and me a shaking all over and ready to sink down in my tracks I was that scared; and the place getting hotter and hotter, the butter beginning to melt and run down my neck and behind my ears; and pretty soon, when one of them says, „I'm for going and getting in the cabin FIRST and right NOW, and catching them when they come”, I most dropped; and a streak of butter come a-trickling down my forehead, and Aunt Sally she see it, and turns white as a sheet, and says: ”For the land's sake, what is the matter with the child? He's got the brain-fever as shore as you're born, they're

²¹ Istoriya literaturi SSHA. Red. kollegiya: Ya.N. Zasurskiy, M.M. Koreneva, Ye.A. Stetsenko. I: Literatura kolonial'nogo perioda i epoxi Voyni za nezavisimost Otv. red. M.M. Koreneva. - M.: Nasledie, 1997. T. II: Literatura epoxi romantizma Otv. red. A.M. Zverev. - M.: Nasledie, 1999. T.III: Literatura serediny XIX v. Otv. red. Ye.A. Stetsenko. - M.: Nasledie, 2001.

²² Adabiy turlar va janrlar. (tarixi va nazariyasiga oid). 3 jildlik. 1–jild. –T.: Fan. 1991. – 334 b.

oozing out! ” *And everybody runs to see, and she snatches off my hat, and out comes the bread and what was left of the butter, and she grabbed me, and hugged me and says.*

Odil Rahimiy tarjimasi:

Salli xolaning mendan nuqul gap soʻrayverganini aytmayisizmi! Oʻzim qoʻrqib ketganimdan dir-dir titrab oʻtiribman, uyning ichi tobora isib, shlyapam tagidagi moy erib, boʻyinlarimdan va yelkalarimdan oqib tusha boshladi; fermerlardan biri: "Hozirning oʻzida bostirmaga kirib, oʻsha yerda poylab oʻtirish kerak, ular kelishi bilan tutib olish kerak" - degan edi, oʻtirgan yerimdan yiqilib tushishimga sal qoldi, buning ustiga moy peshonamdan ham oqib tusha boshladi. Salli xola uni koʻrib qolib oppoq oqarib ketdi-da: Yo xudoyim! Bolaga nima boʻldi-ya? Miyasi yalligʻlanganga oʻxshaydi, qaranglar, miyasi oqib tushyapti!

Gʻafur Gʻulomning "Shum bola" asarida quyidagi misolni koʻrib chiqamiz:

Noiloj goldim, tuxumni qalpoqchamga solib, kiyib oldimda, oshxonaga kirdim. Onam meni tergay boshladi. Men jimgina quloq solib, oʻchoqning yoniga choʻqqayib, oʻt qalashtirmoqqa boshladim. Men bilmagan ekanman oʻtning taftiga lippamdagi yogʻ erib, pochamdan oqmoqda ekan. Oyim qoʻlidagi xamir yoyib oʻtirgan oʻqlov bilan boshimga astagina urdi. Oyim boshimga oʻqlov bilan urganda qalpoq tagida boʻlgan tuxum pachaqlangan edi. Uning sarigʻi oqqa aralashib, chakkamdan sirqib, yuzimga oqmoqda edi. Oyim: "Bola bechoraning boshini yorib, qatigʻini chiqarib yubordimmi", - deb esi chiqib ketgan edi.

Misollardan koʻrinadiki Mark Tven asaridagi bosh kahramon yertoʻladan moy bilan nonni oʻgʻirlab oʻgay xolasiga ushlanib qolib shlyapasi ostida yashirishi va issiq xonada erib peshonasidan oqib tushgani, hamda Gʻafur Gʻulom asaridagi bosh kahramon Shum bolani oyisidan oʻgʻirlagan yogʻi ham issiqda erib ketishi va tuxum pachaqlanib chakkasidan oqib tushganida xar ikkala ayol bolaning miyasi oqib tushayapti, deb oʻylashi, ushbu asarlardagi ikki yozuvchilarning uslublarida badiiy oʻxshashlik borligini anglashimiz mumkin²³.

Har ikkala adibning mahorati obrazlar yaratishda yaqqol namoyon boʻladi. Shum bola bilan Omon Tom bilan Gekni yodga soladi.

Bu asarlarda realistik obrazlar yaratilgan. Jumladan, Tom Soyer ham, Geklʻberri Finn ham, Shum bola ham yetimchalar hisoblanishadi. Tom kichik ukasi va singlisi bilan Polli xolasinikida yashaydi. Gekning onasi yoʻq, otasi ham unga otalik qilmaydi. Shum bolaning ham otasi yoʻq, u oilada katta farzand, bir ukasi va singlisi bor. Tom ham, Gek ham, Shum bola ham ertalabdan kechgacha koʻchada, tengdoshlari bilan daydib yurishadi.

“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”da:

“Tom did play hookey, and he had a very good time”.

«Tom chindan ham kun boʻyi shataloq otib oʻynab yurdi va vaqtini xushchaqchaqlik bilan oʻtkazdi».

²³ Amerika adabiyotining asoslari. – Vienna, Avstriche, USA Regional Program office, 1997. – 118 p.

“Shum bola”da:

«Ertadan–kech ko’cha changitib hammaning joniga tegib, kampirlardan qarg’ish eshitib, o’spirinlardan kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan uvinto’da bekorchi bolalarmiz».

Ular har xil o’yinlar o’ynashadi.

“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”da:

“Soon the free boys would be coming; tripping along on all sorts of exciting expeditions, and they would make the world of fun of him for having to work”.

«Bugun bolalarning hammasi ko’chalarda o’ynab yuradilar. Ular albatta qiziq–qiziq o’yinlar o’ylab qo’yganlar».

“Shum bola”da:

«Mahallamizning bir tomoni Tikonli mozor, bir tomoni Qo’rg’ontagi, Uzun ko’chaning o’ng, chap tomonidagi pastqam, tor ko’chalarda o’g’il va qiz bolalar to’planib, har xil o’yinlar o’ynaymiz. Kurash, «botmon–botmon», «oq terakmi–ko’k terak», «qushim boshi», «mindi–mindi», «o’g’ri keldi», «bekinmashoq» degan o’yinlarimiz bor».

Tomning ham, Shum bolaning ham cho’ntaklarida shu kabi o’yinlarga mo’ljallangan matohlardan o’zga hech narsa yo’q.

“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”da:

“He got out all his worldly wealth and examined it; bits of toys, marbles, and rubbish; enough to buy an exchange of work, maybe, but not half enough to buy as much as half an hour of freedom”.

Adabiyot tarixiga nazar tashlar ekanmiz, adiblar bolalar va o’smirlar ruhiyatini ochib berishda ularning muhit bilan “to’qnashuvi”ni aziyat chekuvchi shaxs sifatida tasvirlashlari va shu obrazlar orqali o’zlarining ma’naviy-estetik ideallarini aks ettirish uchun foydalanganliklarining guvohi bo’lamiz. Bunga milliy adabiyotlardan yuzlab misollar keltirish mumkin, biroq biz olamga mashhur adiblar Charl’z Dikens (“Oliver Tvist”), V.Gyugo (“Xo’rlanganlar”, “Kulayotgan kishi”), G.Malo (“Sayoq truppa”, “Romen Kal’brining boshidan kechirganlari”), A.La Guma (“Bir qultum qahva”), A.de Sent-Ekzyuperi (“Kichkina shahzoda”), K.Viv’ye (“Avtostop”, “Remi va arvo’h”) nomlarini keltirish bilan chegaralanamiz²⁴. Bu manzarani Mark Tven va G’afur G’ulom ijodida ham kuzatish mumkin. Ularning asarlari inson umrining shu davrida ro’y beradigan ruhiy kechinmalarini mohirona tadqiq etilganligi bilan ajralib turadi.

Har uchala asar (“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, “Gekl’berri Finnning boshidan kechirganlari”, “Shum bola”)ning qahramonlari ham umidsizlik nimaligini bilishmaydi, ular kurashchan, intiluvchan, optimist va o’tkir hazilkash o’spirinlar. Tom bilan Gek do’stlari Jimni qullikdan qutqarishga, uning barcha qatori ozod inson bo’lishiga chin dildan harakat qiladilar, “barcha eshon, mulla va ularning tantiq xotinlarining ayovsiz dushmani bo’lgan Shum bola esa o’tgan asrda minglab kitobxonlarning sevimli qahramoniga aylangan edi”.

²⁴ Аникин Г. В. «История английской литературы», Москва, «Наука», 1975 у.

1. Po‘latov Yu. Baddiy asarda nomlar tarjimasi. T.: Fan, 1967
2. Geismar, William “Articles”, London, “Lighthouse”, 1986 y.
3. Аникин Г. В. «История английской литературы», Москва, «Наука» , 1975 y.
4. Abrorov A., Soyimov B. G‘afur G‘ulomning badiiy olami. – T., 1984. – 54 b.
5. Adabiyot nazariyasi: 2 jildlik. M.Nurmuhamedova tahriri ostida. 1–jild, 2–jild.
–T.: Fan. 1978, 1979. – 449 b.